

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Oziq-ovqat sanoati rivojlanishining xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna

Зарубежный опыт развития пищевой промышленности и возможности его использования

Раджабалиева Ирода Алишеровна

Foreign experiences of food industry development and possibilities of using them

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna

Received: May 7, 2025 Revised: May 9, 2025 ■ Accepted: May 12, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada oziq-ovqat sanoati sohasida mahsulot ishlab chiqarishning xorij tajribasi va ulardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Oziq-ovqat sanoati rivojlanishining xorij tajribalarining samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlariga ajratilgan holda tahlil etilgan. Shuningdek, xorij kompaniyalari tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirishda "resurstejamkorlik koeffisienti" va "texnologiyaning innovatsionlik darajasi" ko'rsatkichidan foydalanish o'rganilgan.
- **Kalit so'zlar:** Sanoat, sanoat mahsuloti, oziq-ovqat sanoati, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, innovatsion samaradorlik, ishlab chiqarish samaradorligi, samaradorlik ko'rsatkichlari, resurstejamkorlik koeffisienti, texnologiyaning innovatsionlik darajasi, yalpi foyda, rentabellik.
- **Аннотация.** В статье анализируется зарубежный опыт производства продуктов питания и возможности их использования в Узбекистане. Проанализирована система показателей эффективности зарубежного опыта развития пищевой промышленности путем разделения ее на показатели экономической, социальной, технологической и экологической эффективности, а также путем внедрения зарубежными компаниями современной техники и инновационных технологий в деятельность предприятий пищевой промышленности, повышение объемов и эффективности производства продукции. Изучено использование показателей «коэффициент ресурсоэффективности» и «уровень технологических инноваций».
- **Ключевые слова:** Промышленность, промышленная продукция, пищевая промышленность, социальная, экономическая, технологическая, инновационная, эффективность, эффективность производства, показатели эффективности, коэффициент ресурсоэффективности, инновационный уровень технологии, валовая прибыль, рентабельность.
- **Abstract.** The article analyzes the foreign experience of food production and the possibilities of their use in Uzbekistan. The system of efficiency indicators of foreign experiences of food industry development was analyzed by dividing it into economic, social, technological and environmental efficiency indicators. Also, by introducing modern

equipment and innovative technologies into the activities of food industry enterprises by foreign companies the use of the “resource efficiency coefficient” and “technological innovation level” indicators in increasing the volume and efficiency of product production has been studied.

- **Key words:** Industry, industrial product, food industry, social, economic, technological, innovative, efficiency, production efficiency, efficiency indicators, resource efficiency coefficient, innovation level of technology, gross profit, profitability

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati ishchilar soni va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi yuqoriligi bo'yicha eng yirik tarmoqlardan hisoblanadi. Bu tarmoqning muhimligi shundaki, u insonning asosiy ehtiyojlaridan biri-oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Jahon ishlab chiqarish sanoati tarkibida oziq-ovqat sanoatining ulushi qariyb -9%, rivojlangan mamlakatlarda - 7,6%, rivojlanayotgan mamlakatlarda - 11,8% ni tashkil etadi[8].

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini oshirish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. “Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni diversifikatsiya qilish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish”[1] muhim vazifalardan hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar oziq-ovqat sanoati yuqori sifatli va xilma xil mahsulotlar ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi. Bu davlatlarda sut, go'sht, baliq, konserva va qandolat sanoati alohida o'rin tutadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari, hayotimizning muhim bir qismini tashkil etadi va ularning samarali rivojlantirilishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotni barqaror ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va qo'llanilayotgan chora tadbirlar natijasida oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi oshib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat sanoati rivojlanishining xorij tajribalari va ularidan foydalanish imkoniyatlarini ko'pchilik olimlar mezonga hodisa va jarayonlarning ajratib turuvchi belgisi, baholashning o'lchovi deb yondashishgan.

Iqtisodchi olim L.V.Ermolinaning fikricha, ishlab chiqarish samaradorligi uning natijadorligini bildirib, ishlab chiqarish maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan resurslardan oqilona foydalanish darajasi bilan tavsiflanadi[2].

N.V.Shesterikovning fikricha, samarali, barqaror ishlab chiqarishni shakllantirish uchun ishlab chiqarish-iqtisodiy

tizimning (korxonaning) tarkibiy va funksional mazmunini doimiy ravishda yangilashga qaratilgan uzoq muddatli harakatlar rejasi deb nomlanishi, o'zgaruvchan tashqi va ichki muhitda barqaror potensialga ega bo'lgan kompaniya o'z faoliyatining umumiy samaradorligini ta'minlaydi, xodimlar, tashkilotlar, davlat oldidagi barcha majburiyatlarni bajaradi, yetarli daromad oladi va kompaniyaning missiyasi, qarashlari va maqsadlariga muvofiq tegishli xarajatlarni amalga oshirishi talqin etilgan [3].

Respublikamizda ham H.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov[4], B.T.Salimov[5], G.A.Samatov[6], I.Y.Umarov[7] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash samaradorligini oshirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan hamda e'tiborga molik ilmiy natijalarga erishilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni asosiy tarmoqlar bo'yicha o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Go'sht ishlab chiqaruvchi asosiy mintaq – Osiyo davlatlari bo'lib, undan keyingi o'rinda – Amerika Qo'shma Shtatlari turadi. Dunyo bo'yicha go'sht ishlab chiqarish hajmida Yevropa davlatlarining ulushi kamayib bormoqda. Jahonda 2023 yilda go'sht ishlab chiqarish 337 million tonnaga yetdi, bu 2010 yilga nisbatan 44 foizga yoki 103 million tonnaga ko'proqni tashkil etadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda dunyoda go'sht ishlab chiqarish 2019 yilga nisbatan 1,1 foizga kamaygan va 333 million tonnani tashkil etgan (1-jadval). Bu pasayish, asosan, cho'chqa go'shti ishlab chiqarishning 8,3% ga kamayishi bilan bog'liq.

Jahonda parranda go'shti bozori ham jadal rivojlanmoqda. Oxirgi 10 yil ichida parranda go'shti ishlab chiqarish 2010 yildagi 99,3 million tonnadan 2020 yilda 136,8 million tonnagacha yoki 37,8 foizga o'sdi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarining eng yirik ishlab chiqaruvchilari Xitoy, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Braziliya, Rossiya va Hindistondir.

Xitoy va Amerika Qo'shma Shtatlari asosiy go'sht ishlab chiqaruvchilar uchtagiga kiradi. Xususan, dunyo bo'yicha cho'chqa go'shti yetishtirishning qariyb 40 foizi Xitoyning,

tovuq va qoramol go'shti ishlab chiqarishning 17-18 foizi Amerika Qo'shma Shtatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu ikki davlatning go'sht etishtirish bo'yicha maqsadida farq bo'lib, Xitoyda go'sht etishtirish, asosan, ichki bozor

uchun mo'ljallangan bo'lsa, AQShda ishlab chiqarilgan go'shtning (ayniqsa, tovuq go'shtining) salmoqli qismi eksport qilinadi.

1-jadval.

Dunyoda go'sht ishlab chiqarish dinamikasi (mln tonna)

DAVLATLAR	2010	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023 Y.DA 2010 Y.GA NISBATAN, %
Dunyo	294,4	307,1	319,7	328,9	335,2	343,1	336,6	333	113,1
Xitoy	80,9	85	88	86,6	86,9	88,3	77,4	75,1	92,8
EI-28	44,8	45	44,9	47,4	47,2	48,1	48,1	48,4	108
AQSh	42	42,6	42,8	44,6	45,8	46,8	48,1	47,5	113,1
Braziliya	23,6	24,6	26	27	27,7	28,1	28,6	30,6	129,7
Rossiya	7,2	8	9	9,9	10,3	10,6	10,9	11	152,8
Hindiston	6,1	6,6	6,9	7,3	7,6	8	8,1	7,3	119,7

Yevropa mamlakatlari, AQSh va Avstraliyada sut sanoati yuqori darajada rivojlangan. Fransiya, Finlandiya, Germaniya, Gollandiya va Shvetsariyada sifatli qaymoq, sariyog' hamda pishloqlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Hindiston, AQSh, Germaniya hayvon yog'ini katta miqdorda ishlab chiqaruvchilar hisoblansa, Yevropa mamlakatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy va MDH davlatlari – sut mahsulotlarini import qiluvchi asosiy mamlakatlardir. 2023 yilda dunyoda sut ishlab chiqarish 52,4 foizga o'sib, 883 million tonnani tashkil etdi, bu 2010 yilga nisbatan 304 million tonnaga ko'pdir (2-jadval). Osiyo 2023 yilda jami 42% bilan Yevropa Ittifoqi (26%), Amerika (23%), Afrika (5%) va Okeaniyani (3%) ortda qoldirib, eng yirik sut ishlab chiqaruvchi mintaqaga

aylandi. Xususan, Osiyo davlatlarida sut ishlab chiqarish 2010-2023 yillar oralig'ida ikki baravar ko'payib, 170 million tonnadan 369 million tonnagacha o'sdi.

Ushbu o'sish asosa Hindistonda sut ishlab chiqarishning ko'payishi (108 million tonna) hisobiga sodir bo'ldi. Hindistonda jahon ishlab chiqarishining 21 foiz ulushi miqdorida sut ishlab chiqarilib, ushbu davlatni eng yirik sut ishlab chiqaruvchiga aylantirdi. 2019 yilda 11 foiz ulush bilan Amerika Qo'shma Shtatlari ikkinchi yirik sut ishlab chiqaruvchi bo'ldi; qolgan yirik sut ishlab chiqaruvchilar (Pokiston, Xitoy, Braziliya, Germaniya, Rossiya Federasiyasi va Fransiya) jahon ishlab chiqarishining 3-6 foizi miqdorida sut ishlab chiqargan.

2-jadval

Dunyoda sut ishlab chiqarish dinamikasi (mln. tonna)

DAVLATLAR	2010	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023 Y.DA 2010 Y.GA NISBATAN, %
Dunyo	579,6	650,1	723,6	802,5	814	854,7	879,7	883,3	152,4
Hindiston	79,9	95,8	122,1	155,7	165,3	176,3	188	187,6	234,8
AQSh	76	80,3	87,5	94,6	96,4	97,8	98,7	99,1	130,4
Pokiston	25,6	29,4	35,5	41,6	42,9	52,5	54,1	56	218,8
Xitoy	12,4	32	41,2	36,5	35,4	35	35,5	36,8	296,8
Braziliya	20,6	25,6	31	34,9	33,9	34,6	35,2	36,2	175,7
Germaniya	28,4	28,5	29,6	32,7	32,7	36,6	33,1	33,1	116,5

Qayta ishlangan xom ashyo bo'yicha birinchi beshta sut ishlab chiqaruvchilar qatoriga: Dairy Farmers of America, Nestle, Arla Foods, Fonterra va Groupe Lactalis kabi kompaniyalar kiradi.

AQShda oziq-ovqat sanoati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, uning ulushi 12 foizni tashkil etadi. Go'sht, sut, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar, konserva AQSh oziq-ovqat sanoatining eng muhim tarmoqlari hisoblanadi. Qo'shma Shtatlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining yuqoriligi tufayli tabiiy mahsulotlarning o'rnini bosuvchi turli xil oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ta'kidlash joizki, AQShning barcha shtatlarida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyat yuritadi. AQShning ko'pgina yirik shaharlari ushbu sanoatning yetakchi markazlari hisoblanadi.

Kanadada umumiy ishlab chiqarish qiymati bo'yicha oziq-ovqat sanoati ikkinchi yirik ishlab chiqarish sanoati bo'lib, 2019 yilda umumiy ishlab chiqarish savdosining 17 foizini va milliy yalpi ichki mahsulotning 2 foizini tashkil qilgan. Mazkur sohada 2019 yilda 290000 nafar kishi ish bilan ta'minlagan. Go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish ushbu sanoatning eng yirik kichik tarmog'i bo'lib, barcha ishlab chiqarish savdosining 25% ini tashkil etsa, sut mahsulotlari ishlab chiqarish (12,3%) ikkinchi o'rinda turadi. Kanada oziq-ovqat sanoati juda innovatsion sanoatdir. Sanoatdagi korxonalarning katta qismi (72%)ga 2016 va 2018 yillar oralig'ida mahsulot, jarayon, tashkilot yoki marketing innovatsiyalari joriy qilindi, ulardan deyarli yarmi jarayon innovatsiyasini (48%) tashkil etdi.

Xitoy sanoati, shubhasiz, eng rivojlangan sanoatlardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining umumiy soni va ularda band bo'lgan ishchilar soni bo'yicha mamlakat dunyoda birinchi o'rinda turadi. Xitoyning janubi-g'arbiy qismida ko'plab oziq-ovqat sanoati korxonalari joylashgan. Xitoyda aholi soni ko'p bo'lishiga qaramasdan, ularning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji XX asrning 80-yillaridan boshlab to'la qondirila boshlandi. Ma'lumki, Xitoy dengiz mahsulotlari va baliq, shu bilan birga, meva va sabzavotlarni eksport qiluvchi asosiy mamlakatlardan biridir. Choy sanoati tarixan rivojlangan, XIX asrdan beri Xitoy dunyoda choyning asosiy yetkazib beruvchilaridan biri hisoblanadi. Choy sanoati korxonalari, asosan, choy yetishtiruvchilarga yaqin joylashgan, chunki yig'ilgan xom ashyo darhol qayta ishlanishi kerak, bu ancha avval qurilgan zavodlarda amalga oshiriladi.

Yaponiya yuqori sanoatlashgan davlatdir. Yaponiya hududining kichikligiga qaramay, jahon sanoat mahsulotlarining 12% ga yaqinini ishlab chiqaradi. Yaponiyada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, asosan, import qilinadigan xom ashyo asosida amalga oshiriladi, chunki mamlakatda o'z xom ashyo mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun imkoniyat va resurslar mavjud emas. Shu bilan birga, Yaponiya dunyodagi

eng yirik oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi davlatlardan biridir. Mamlakat shakar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shuningdek, Yaponiyada organik mahsulotlar va sog'lik uchun foydali oziq-ovqatga talab kuchli hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida Osiyo mamlakatlari, birinchi navbatda, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ulushi oshib bormoqda. Sanoatning tarmoq strukturasi bir-birini to'ldiruvchi ikkita tendensiyaning kuzatish mumkin. Bir tomondan, tarmoqlar kichik tarmoqlarga va ishlab chiqarishga "ajralishda" davom etsa, ikkinchi tomondan, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqasi ham kuchayib bormoqda.

Mamlakatimizga import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyati Shvetsariyaning "Nestlé" kompaniyasi, AQShning "Cargill", "PepsiCo", "Kraft Foods", "Coca-Cola", "Kellogg's", "Mars", "General Mills" kompaniyalari va Britaniyaning "Unilever" kompaniyasi kabi dunyodagi eng nufuzli o'nta korporasiya tomonidan ishlab chiqariladi. Xorijiy kompaniyalarning: samarali texnologiyalardan foydalanishi, uzoq muddatga kapital kiritish, yaxshi o'ylangan strategiya, ish tajribasi, katta marketing uchun mablag'lar, yaxshi logistika xizmati, malakali menejment, o'z davlatlarining qo'llab-quvvatlashi kabi omillardan respublikamiz korxonalarida ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, klasterlar orqali oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini tashkil etish juda muhim va o'zini oqlaydigan xo'jalik shaklidir. Klasterlarga yirik korxonalar bilan birga, kichik korxonalarni ham jalb etish mumkinligi bilan ajralib turadi.

AQSh, Kanada, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Fransiya, Germaniya, Vengriya va Avstriya kabi mamlakatlarda oziq-ovqat ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilgan bo'lib, ular muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda va bu nafaqat klaster tizimining zarurligini baholash imkonini beradi, balki klaster tizimi mintaqaning va umuman, uning mamlakat miqyosidagi faoliyati samarali bo'layotganini anglatadi. Shu bilan birga, klaster a'zolari manfaatdorligining oshib berayotganidan dalolat beradi.

AQShda Kaliforniya vino klasterlari samarali faoliyat yuritmoqda. U o'z ichiga uzumchilikka ixtisoslashgan yirik korxonalar hamda kichik vino ishlab chiqaruvchi subyektlarni ham qamrab olgan. Ushbu vino klasteri mahsulotlari oziq-ovqat va restoran sohasi bilan bog'langan.

Kanada iqtisodiyoti ko'plab muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritayotgan yuqori texnologiyali klaster modellari bilan tavsiflanadi, masalan, vino klasteri (Niagara); oziq-ovqat sanoati klasteri (Toronto). Kanadada klasterlar rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hukumatning barcha darajalarida - federal, mintaqaviy va shaharlar darajasida amalga

oshiriladi. Federal darajada klasterlarni qo'llabquvvatlash Kanada hukumatining investisiyalarni jalb qilish siyosatini amalga oshirishi, kompaniya mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotishga yordam berish, mehnat bozorini tartibga solish hamda istiqbolli tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish, ta'lim dasturlarini yaratishda o'z ifodasini topadi va intellektual mulkni himoya qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistondan oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchilar, asosan, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Latviya hisoblanadi. Shu bilan birga, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmlarini oshirishni rag'batlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim.

AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Kanada, Xitoy, Rossiya, Hindiston va boshqa rivojlangan xorijiy davlatlar iqtisodiyot sohalaridagi klasterlash tajribasini tahlil qilish quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi: klasterga kiritilgan tashkilotlar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirish va sinergetik samara olish; innovatsion yo'nalishda rivojlantirish.

Oziq-ovqat sanoati rivojlanishining xorij tajribasi o'rganilishi va tahlil qilinishi natijasida Shvesariya, AQSh va Buyuk Britaniya davlatlarining yetakchi korxonalari tomonidan qo'llanilayotgan samarali texnologiyalardan foydalanish, uzoq muddatga kapital kiritish, yaxshi o'ylangan strategiya, yirik marketing byudjetlari, katta ish tajribasi, sifatli logistika va brendlar portfeli, malakali menejment kabi jihatlardan respublikamizda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati korxonalari innovatsion klasterini tashkil etish taklif etiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Rajabaliyeva Iroda Alisherovna –Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida o'qituvchisi / Раджабалиева Ирода Алишеровна – Экономика и Педагогический университет, Преподаватель кафедры экономики / Rajabaliyeva Iroda Alisherovna – Lecturer of the Department of “Economics”, University of Economics and Pedagogy**

► irodaalisherovna820@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-0776-7186>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2024-yildagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-36-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-6802687>
- [2]. Ермолина Л.В. Экономическое содержание категории «эффективность». Понятие стратегической эффективности // Основы экономики, управления и права. 2013. № 2. С. 98–102.
- [3]. Шестерикова Н.В. Формирование стратегии устойчивого развития предприятия на основе системы сбалансированных показателей // автореф. дисс. к.э.н. - Нижний Новгород. 2009. – С. 1.
- [4]. Abulqosimov.H.P., RasulovT.S. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llari. Risola - T.,: «Fan va texnologiya», 2022;
- [5]. Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона (на примере Сырдарьинской и Джизакской областей Республики Узбекистан): дисс д.э.н. - Т.: 2020;
- [6]. Samatov G.A., Rustamova I.B. Innovatsiyaviy texnika va texnologiyalar samaradorligi va unda texnik-iqtisodiy tadqiqotlarning rivojlantirilishi. //Iqtisodiyot va ta'lim. №1 2020. - 48-52 b.;
- [7]. Umarov I.Y. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida) I.f.n. diss. 08.00.03-Industrial tarmoqlar iqtisodiyoti. Toshkent, 2019. – 148 b;
- [8]. Ergashev R.X., Rajabaliyeva.I.A. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini baholash. “Xorazm Ma'mun akademiyasi axborot-nomasi” №7/2 (116) 2024, Xorazm Ma'mun akademiyasi, ISSN 2091-573 <http://mamun.uz/uz/page/56file:///C:/Users/Windows%2010/Downloads/Telegram%20Desktop/2024-7-2.pdf> 164-170 b.